

## ISMOIL G'ASPIRALI IJODIY FAOLIYATINING JADIDCHILIK ADABIYOTIDAGI O'RNI

**Sadirova Parizoda Botir qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU*

*1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ma'rifatparvar, jonkuyar adib Ismoilbek G'aspiralining adabiy faoliyati, uning jadidchilik adabiyotidagi o'rni va ahamiyati masalalariga to'xtalib o'tilgan. Ijodkorning "Turkiston sayohatlari" asari tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** Ma'rifatparvar, Turkiston, millat, gazeta, sayohat, turk xalqi.

Ismoilbek G'aspirali (1851-1914) jadidchilik, yangi usul maktablarining asochisi, buyuk ma'rifatparvar, mashhur noshir va yozuvchi. U Yaltaning Avjiko'y qishlog'ida dunyoga keladi.<sup>1</sup> I.G'aspirali qrim-tatar millatiga mansub bo'lsa-da, uni butun Turkiston, dunyodagi barcha davlatlar, millatlar juda yaxshi tanishgan, uni yaxshi ko'rishgan. Chunki, ijodkor butun umrini ma'rifatga, uni turkiy xalqlar hayotiga tashviq qilishda, xalqning ilmini gazeta va jurnallar orqali boyitishga, yangiliklarga oshno qilishga, yangicha usulda maktablar ochib, o'quvchilar savodini qisqa fursatda chiqarishga, maktablarni darslik va adabiyotlar bilan ta'minlashga, har tarafdin Turkiston uchun yaxshilik qilishga bag'ishladi. Uning siyosat, ta'lim, adabiyot sohasida qilgan ishlari butun dunyoda misli bir inqilob bo'ldi. Noshir ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng yoyishda gazeta, jurnallar chiqarishga harakat qildi, bu ishga qayta-qayta urindi. Dastlab muvaffaqiyatsizliklarga uchrasa ham taslim bo'lmadi. 1883-yil 10-aprelda Ismoil G'aspiraliga birinchi qrim-tatar-ruscha „Tarjimon-Terjiman“ gazetasini nashr qilish va tahrir qilishga ruxsat berildi. „Tarjimon-Terjiman“ orqali Ismoil G'aspirali g'oyalari Qrim, Idel-Ural, Xiva xonligi, Buxoro xonligida tarqaldi.<sup>2</sup> Keyinchalik esa gazeta Yevropa va Osiyoning boshqa mamlakatlariga ham tarqaldi. Yozuvchi buning uchun bor kuchi, g'ayratini ishga soldi, turli xil qiyinchilik va muammolarga duch keldi. Ammo mehnatining samarasi o'laroq, yuksak natijalarga ham erishdi. 1905-yil oxiridan Ismoil G'aspirali ayollar uchun birinchi qrim-tatar jurnali „[Alemi nisvan](#)“ („Ayollar dunyosi“)ni nashr eta boshladi.<sup>3</sup> O'sha davrda ayollarning ozodligi, haq-huquqlari ma'lum darajada cheklanganligini qayd qilingandi. Ularga hatto gazeta va jurnallar o'qish ham mumkin bo'lmagan. Avval ham I.G'aspirali ayollar uchun jurnal tashkil etishga bir necha bor harakat

<sup>1</sup> Краткий биографический очерк Исмаила Гаспринского (Симферополь), Доля, 2000 — 328 bet.

<sup>2</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ismoil\\_Gaspirali#cite\\_note-5](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ismoil_Gaspirali#cite_note-5)

<sup>3</sup> O'sha manba

qilgan, ammo bu urinishlar muvaffaqiyatsiz tugagan. Lekin, noshir birinchi bo'lib o'z zamonasida bunga qo'l urgan. Sababi, ijodkor ayollar va erkaklarning tengsizligiga, qizlarning o'qitilmasligiga mutlaqo qarshi bo'lgan. Ushbu g'oyalarni o'zining turli sohalardagi faoliyati orqali aks ettirgan. Umuman olganda, I.G'aspirali turk millatini, Turkistonni qoloqlikdan, g'ofillikdan, eng katta xavfdan asrash uchun har narsa qildi. Hayoti davomida faqatgina jadidchilikning keng rivojlanishini, boshqa mamlakatlar ham uning mazmun-mohiyatini anglab yetishlarini istadi. Bu yo'lda barcha imkoniyatidan foydalandi. Jumlai jahonga ezgulik va yaxshilik sog'ingani uchun juda ko'plab mamlakatlar, xorijiy davlatlar uni chin dildan hurmat qilishdi.

Bundan tashqari, Ismoil Bey jadidizm deb nomlangan dunyoviy o'qitish uslubiga asos solgan va rivojlantirgan. U musulmon mamlakatlarida boshlang'ich ta'limning tuzilishi va odatiy mohiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.<sup>4</sup> Ma'rifatparvarning bunday islohotlaridan so'ngra uning yo'lini tanlagan minglab ziyolilar yetishib chiqdi. I. G'aspirali yangi ma'rifatparvarlarning paydo bo'lishiga ulkan zamin yaratdi.

I.G'aspirali nafaqat siyosat va matbuot shakllanishiga, balki jadidchilik adabiyotining yuzaga kelishiga ham sabab bo'ldi. Uning „Fransuz maktublari“ romani, uning bir qismi „Dar ul Raxat musulmonlari“ utopik qissasi, „Afrika harflari — Amazonlar mamlakati“ hikoyasi, „Arslon qiz“ qissasi, „Sharq g'ami“ qissasi, „Rus islomi. Musulmonning fikrlari, eslatmalari va kuzatishlari“ qissasi, „Rossiya-Sharq kelishuvi. Fikrlar, eslatmalar va tilaklar“ kabi qissa va boshqa ijodiy ishlari keng ommaga juda tanish.<sup>5</sup> Adib ushbu asarlari orqali davrning muhim jihatlari va xususiyatlarini, musulmon mamlakatlarining tarixi, musulmonlarning o'sha davrdagi madaniy, aqliy holatlarini ham ko'rsatib o'tadi.

Yozuvchining „Turkiston sayohatlari“ asari ham jadidchilik tarixi va adabiyotida muhim ahamiyatga ega. Yovuz Oqpinorning yozishicha, „Turkiston sayohatlari“ Ismoilbekning 1893- va 1908- yildagi sayohat xotiralari hamda kuzatishlaridan iboratdir.<sup>6</sup> I.G'aspirali bu asarida turli turkiy davlatlarga, xorijiy mamlakatlarga safar qiladi. Safar qilar ekan, yo'l bo'yi ko'rgan-kechirganlarini, his etgan, eshitgan barcha tuyg'ulari, hislarini ham „Turkiston sayohatlari“ da real tarzda aks ettiradi. Muallif sayohati davomida Tiflis, Kavkaz, Ozarbayjon, Turkmaniston, Buxoro, Samarqand, Toshkent va shu kabi ko'plab shaharlar va davlatlarni kezib chiqadi. U manzaralarni shunchaki tomosha qilmasdan, yerning iqlimi qandayligi, turli shaharlar qanday paydo bo'lgani, ularning qanday afsonalar bilan bog'liqligi, mahalliy, qishloq xo'jaliklari, asosiy mashg'ulotlari, aholisi, uning o'ziga xos fazilatlarini haqida ma'lumotlar beradi. Bulardan tashqari, yozuvchi mamlakatdagi mashhur ziyolilar,

<sup>4</sup> <https://uz.cultureoeuvre.com/10569459-ismail-gasprinsky-biography-creativity-career-personal-life>

<sup>5</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ismoil\\_Gaspirali#cite\\_note-11](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ismoil_Gaspirali#cite_note-11)

<sup>6</sup> <https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/ismoilbek-gasprinskiy-1851-1914-qrim/ismoilbek-gasprali-turkiston-sayohatlari>

hojilar, tujjorlar, ta'lim va yoshlar, aholining madaniyati, saviyasi, savodxonligi haqida ham batafsil to'xtalib o'tadi. Bu jihatlari bilan asar Boburning "Boburnoma"sga yaqin turadi. Shu sababdan uni sayohat xotiralari yoki memuar asar deb yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Adibning hajmi unchalik katta bo'lmagan mazkur asaridan turli sohalarga oid kerakli bilimlarni olish mumkin. Asar tarix, etnografiya, geografiya, adabiyot kabi fanlar hayotida katta ahamiyatga ega.

"Turkiston sayohatlari" jadidchilik adabiyotida ham muhim o'rin tutadi. Unda muallifning turk xalqi uchun jon kuydirishlari, turkistonliklarning asosiy xatolari, kamchiliklari namoyon bo'ladi. "Boshqa millatlar ichida unga o'xshash o'qigan va besh-olti til bilganlar ko'p bo'lganidan alohida e'tibor berishmaydi, lekin bizning jamiyatimizda shunaqa komil tahsil olganlar orada bir ko'rinsa da, darhol obro'li zotga aylanadi. Shuning uchun biz ham bu qarindoshimizning borligidan iftixor etdik." [1:79] Ushbu parchadan Turkistonda ziyolilarning ko'p emasligini ilg'ab olishimiz mumkin. Rossiya Imperiyasi Turkistonni zabt etgach, barcha sohada islohotlar, yangi siyosatlar qo'llaganini ta'kidlab o'tgan edik. Ular o'zlarining qonun va farmonlarini mahalliy aholiga o'tkazish, bajartirish uchun turli yo'llarni qo'llaganlar: siquvga olganlar, tahdid qilganlar, qamoqqa tashlaganlar. Aholi o'rtasida ularning siyosatiga qarshi borish shunday yomon oqibatlariga olib kelishi aniq degan fikr, dunyoqarash paydo bo'lgan. Qattiq qo'rquv va tahdid ostida qolgan xalq biror ortiqcha harakat qilishga botinolmagan. Bir tarafdin bunga mustamlakachilar aybdor bo'lsa, ikkinchi tarafdin diniy mutaassiblik ham sababchidir. Diniy ulamolar chet hayotiga oid barcha narsani: ularning tilini, madaniyatini, hattoki fanlarini o'rganishga yo'l qo'ymaganlar. Shu sababdan, Turkiston o'lkasida hur va ozod fikrli, qo'rqmas, jasur, haqiqiy yurt fidoyilari ko'p bo'lmagan. Har holda, Ismoil G'aspirali davrida ular ozchilikni tashkil etishgan. Keyinchalik, Markaziy Osiyo va butun Turkistondan davrining eng mashhur ma'rifatparvarlari yetishib chiqqan.

Madrasalarda dunyoviy, zamonaviy fanlarning o'qitilmasligi ham Turkistonning G'arb davlatlaridan ortda qolib ketishiga sabab bo'ldi. Yevropa mamlakatlari dunyoning eng mashhur kashfiyotlarini yaratar ekanlar, bizning Turkistonimiz jaholat botqog'iga tobora chuqurroq botib borar edi. Ular ilm-fan, texnika, madaniyat sohasida yuksaklarga ko'tarilaverar ekan, biz tobora tanazzulga yuz tutib borar edik. Bunga asosiy sabab nima edi? Bu savol o'sha davrda ko'pchilikni qiynagan bo'lsa, ehtimol. Bizning eng katta xatomiz g'aflatga botib qolganligimizda bo'ldi. Diniy ulamolar ham umuman, yangilikni qabul qilishni isatmas, o'zlarining asrlardan buyon o'zgarmay kelayotgan ta'lim tizimini shunchaki unutib yuborolmasdilar. Ba'zi vaqtlarda Turkiston yangilik qilishdan, tarixda burilish yasashdan orqaga chekindi. Bir kishining gap-so'zlariga ishonib, o'z fikrini mustaqil so'zlamadi, mustaqil harakat ko'rsatolmadi. O'rta asrlarda Yevropada din vakillarining davlat siyosiy, ma'naviy hayotida ta'siri juda kuchli bo'lgani singari bizning o'lkamizda ham ulamolar, mufti

va qozilarning xalqqa ta'siri juda katta edi. Mahalliy aholi ular nima desa, shunga qattiq ishonishgan, ularning so'zlaridan chiqishmagan. Shu boisdan, zamonaviy fanlar ham o'rganilmay qolavergan. "Eng qoyil qoladigan joyi shundaki, yermoyi va kerosinni qayta ishlash va sotish anchagina ma'lumotli bo'lishni, kimyo va mexanikani yaxshi bilishni talab etishi, bunga oid fanlar madrasalarda o'qitilmasligi, musulmonlarning bu sohaga tishi o'tmasligi ayon bir vaziyatda ham, dindoshlarimiz va eldoshlarimiz kamoli g'ayratlari va zakovatlari tufayli necha-necha zavo'd-fabrikalarga ega bo'libdirlar! Faqat Farangistonda ilmi kimyo tahsil etib qaytgan bir musulmon kimyogarning ularning joniga oro kirgani ham oshkor

haqiqatdir." [1:81] Asarda keltirilgan parchada ham shunday fikrlar bor. Ular zavod, fabrikaga bemalol ega bo'ldilar. Ammo kimyo va mexanika kabi zamonaviy fanlarni o'zimizning oliygohlarda o'qib emas, balki boshqa davlatdan o'rganib, o'qib kelgan holda. Bu biz uchun nihoyatda og'riqli nuqta edi.

"Hurmatli qardoshlar boshlarini likillatib iltifot ko'rsatdilar, ammo nechun Bokuga va ularning karvonsaroyiga kelganimni, maqsadu matlabimni so'roqlaganlaricha hayron edilar, ya'ni gazeta degan narsani umuman tushunmasdilar..." [1:83] Bu parcha ijodkorning Bokudagi safari xotiralaridan olingan. Noshir bir tomondan gazetani butun Turkiston bo'ylab tarqatish maqsadida sayohat qilgandi. Lekin, ba'zi davlatlarda aholining yangilikka qiziqmasligi, hatto gazetaning nimaligini bilmasligi muallifning xafsalasini pir qilardi. Turk xalqining orasida gazeta so'zini eshitmaganlar va uni mutlaqo tushunmaydiganlar bor edi. Demak, ular umuman hayotdagi, dunyodagi ishlardan, voqealardan tamoman bexabar. Bir qancha insonlarning holati shunday edi. Gazeta nimaligini oz-moz biladigan insonlar ham davrning siyosatlari tufayli qaltis ishlarga qo'l urishdan cho'chirdilar. Shuning uchun I.G'aspiralining matbuotchilik faoliyati osonlikcha kechmagan. Bu yo'l mashaqqatlarga boy bir yo'l bo'lgan.

Ta'kidlash joizki, birinchilardan bo'lib gazeta chiqarish, uni ommalashtirish oddiy ish emas. Noshir o'zining jasur va irodali ekanligi uchun ham bu ishning uddasidan chiqolgan. Biroq, barcha ham bu ishni eplab keta olmas edi. Uning ortidagi qiyinchiliklarga dosh berolmas edi. Shu sababdan, I.G'aspirali bu ishga qo'l urganida barcha unga hayron qoladi. Ba'zilar uning ishdan taajjubga ham tushadilar. Chunki, bunday murakkab ish insondan katta yurak va o'tkir zehnni talab qiladi. "Tijorat ahli bizni qo'lidan ish kelmaydigan, laqma-landavur deya, ulamolar esa, gazeta-havodisnomaning nomidanoq qo'rqib-hurkib ketib, bizdan qochishgandi. Ko'rishganimiz bir-ikki ziyoli «obrazovanniy» musulmonlar ham bu sohada biror vazifa yo maqomni egallamasdan turib gazetachilik ishiga sho'ng'iganimizdan taajjubda edilar!" [1:83] Tijorat ahli asosan savdo-sodiq qilish orqasidan kun kechiradi, boylik orttiradi. Ularning fikricha, tadbirkorlik bilan savdo qilish orqali ko'p narsalarga erishish mumkin. Gazeta va jurnaldan qanday naf bor deya o'ylaydigan tijoratchilar

ham kam emasdi. Ulamolar tabiiyki, chet elning yot unsurlaridan, yoxud o'zgacha narsalardan xavfsirashadi. Ular dinda ta'qiqlangan deya qo'rqishadi. Gazetani tushungan ziyolilar ham muallifning qo'rqmay, tavakkal etib, jonini xavfga qo'yib birinchilardan bo'lib harakat qilayotgani uchun taajjub bo'ladilar. Aslida, ijodkorning bu harakatlari uchun har kim unga tahsin o'qisa arziydi. Shu tariqa, asarda ona Turkistonimizning ortda qolishiga nima sabab bo'lganligi, qanday qilib adolatsizliklarga duchor bo'lganligimiz haqqoniy tasvirlanadi. Asarni yaxshilab o'qigan kishi undan o'zi uchun butun umrga kerakli bo'lgan muhim xulosalarni oladi.

Ismoilbek G'aspirali o'z asarlarida asosiy e'tiborini turklar orasida til birligi masalasiga qaratgan. U barcha turkiy xalqlarning bir-biri bilan yaqin munosabatda, tili va lahjalari tamoman o'zgarib ketmagan holda qolishini xohlagan. Millati, xalqi uchun borini ayamagan. Hamisha ularning rivojlanib, taraqqiy etishlari, muhofazada bo'lishlari uchun ter to'kkan. Shuning uchun ijodkorning butun ijodiy faoliyati jadidchilikda yuksak ahamiyat kasb etadi. Uning mehnatlarisiz, izlanishlari, asarlarisiz jadidchilik ham mavjud bo'la olmas edi. Ismoil G'aspirali o'zining serqirra ijodi orqali jadidchilik binosining tamal toshini qo'ydi. Ibratli hayot yo'li tufayli kelgusidagi yosh ma'rifatparvar ziyolilarga har tomonlama o'rnak bo'ldi.

#### **Foydalanilgan adaabiyotlar:**

1. Ismoilbek G'aspirali. Turkiston sayohatlari.-// Jahon adabiyoti,2010, №10, 78-103-betlar.
2. Краткий биографический очерк Исмаила Гаспринского (Симферополь), Доля, 2000 — 328 bet.
3. Ulug'ov Abdulla Jahon adabiyoti (Turkiy xalqlar adabiyoti) [Matn]: darslik /Toshkent Muharrir nashriyoti, 2021. -424 b.
4. <https://uz.cultureoeuvre.com/10569459-ismail-gasprinsky-biography-creativity-career-personal-life>
5. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ismoil\\_Gaspirali#cite\\_note-11](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ismoil_Gaspirali#cite_note-11)
6. <https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/ismoilbek-gasprinskiy-1851-1914-qrim/ismoilbek-g-asprali-turkiston-sayohatlari>